

maqsadida tegishli mamlakat hududida tashrif buyuruvchilarning xarajat qilishlarini rag‘batlantirishga qaratilgan “Tax Free” qo‘shilgan qiymat solig‘ini (QQS) qaytarishni nazarda tutuvchi soliq imtiyozi joriy qilingan. Mazkur yo‘nalishdagi soliq imtiyozlarini qo‘llash QQS stavkasi miqdorida iste‘mol tovarlarining narxini arzonlashtirish asosida xorijiy tashrif buyuruvchilarning iste‘mol tovarlariga bo‘lgan talabini rag‘batlantirishda samarali hisoblanadi. Xorijiy mamlakatlarda QQS ni tadbqiq qilinishining tahliliga ko‘ra, mazkur soliq tovarlar va xizmatlar uchun umumiy stavkaga ega bo‘lsa-da, 70 tadan ortiq mamlakatlarda mazkur soliq joylashtirish vositalari, umumiy ovqatlanish nuqtalari, transport, turoperator xizmatlari kabi turizm sohasi bilan bog‘liq faoliyat turlari uchun pasaytirilgan yoki “nol” stavkada qo‘llaniladi. Jumladan, Isroilda xorijiy turistlar iste‘molining o‘shishini rag‘batlantirish maqsadida turistlar tomonidan mamlakatda bo‘lish davrida sotib olingan tovarlar bo‘yicha to‘langan QQS ni (18%) qaytarish tizimi amal qiladi. Xuddi shu tarzda, 2006 yil yanvar oyida Meksikada QQS ni qaytarish tizimi joriy qilingan bo‘lib, unga ko‘ra tashrif buyuruvchilarga 16% stavkasidagi QQS mamlakatdan chiqishda qaytarib beriladi.

Xorijiy mamlakatlarda turizm sohasi subyektlarining eksport faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning mahsulot va xizmatlari narxlarini tushirishga imkon berish orqali raqobatbardoshligini ta‘minlash maqsadida zamonaviy soliq mexanizmlari taqdim etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Roca J. (2014). *Evaluation of the Effectiveness and Efficiency of Tax Benefit. Institutional Capacity and Finance Sector, Discussion Paper IDB-DP-136. IDB.*
2. Колесов А.С. *Об оценке эффективности финансовой политики // Финансы. 2012. № 11*

YOSHLARNING MOLIYAVIY SAVODXONLIGINI OSHIRISH DAVR TALABI

Asqarova Muhabbat Ibraximovna
*TDIU huzuridagi “O‘zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari”
ilmiy-tadqiqot markazi katta ilmiy xodim*

Ayni paytda davlatimiz tomonidan tadbirkorlik sub‘yektlari va hududlar aholisi manfaatlarini birlashtirishga qaratilgan muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Aholining moliyaviy xulq-atvori makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarga va hududlarning investitsion jozibadorligiga bevosita ta‘sir qiladi. Moliyaviy savodxonlikning yuqori darajasi aholining bir qismi qo‘shimcha bilim olishga va shunga mos ravishda bozor taklif etayotgan moliyaviy mahsulotlardan foydalanishga tayyor ekanligini ko‘rsatadi. Moliyaviy savodxonlikning past darajasi qo‘shimcha bilim olishni istamasligini ko‘rsatishi mumkin. Shunga ko‘ra,

moliyaviy mahsulotni tanlashda aholining bu qismi boshqa birovning fikriga (masalan, ekspert, broker va boshqalarning fikri) tayanishni afzal ko‘radi. Ya‘ni, bu odamlar moliyaviy qarorlar qabul qilishda va ular uchun javobgarlikni olishga qiyinchiliklarga duch kelishadi.

Aholining moliyaviy savodxonligi darajasini ko‘rib chiqishda so‘rovlardan tashqari (bu aholining sub’yektiv fikri) sabab-natija munosabatlarini, ya‘ni viloyatlardagi zarar ko‘rayotgan korxonalar soni, bandlik xizmatlari tomonidan ro‘yxatga olingan ishsizlar soni, moliyaviy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlar soni, o‘rtacha ish haqi, pensionerlarning o‘rtacha oylik pensiyalari, sog‘liqni saqlash muassasalari soni, “soyadagi ish haqi” bo‘yicha qarzlar soni. shaxsiy soliqlar va boshqalarni xisobga olish zarur.

Moliyaviy savodxonlik doirasida ma‘lum miqdordagi bilimga ega bo‘lgan shaxs quyidagi masalalarni hal qilishi mumkin: pulni to‘g‘ri taqsimlash, eng muhim haratlar, pulni jamg‘arish, valyuta ayirboshlash, qanday qimmatli qog‘ozlarni sotib olish, kimdan va qanday narxda sotib olish va boshqalar. Moliyaviy savodxonlikning pastligi bankrotlikka, moliyaviy firibgarlikka qarshi zaiflikka, ortiqcha qarzdorlikka va ijtimoiy muammolarga, shu jumladan depressiya va boshqa shaxsiy muammolarga olib kelishi mumkin. Afsuski, oliy o‘quv yurtlari va kollejlarda moliyaviy savodxonlikni o‘rganishga yetarlicha e‘tibor berilmayapti, shuning uchun talabalar bu haqda umuman bilishmaydi yoki bilganlar salmog‘i ham kam.

Bugungi kunda biz bo‘lajak mutaxassisning kasbiy kompetensiyasi, uning kasbiy faoliyatning barcha turlarini egallashi haqida tez-tez gapiramiz va buning uchun ta‘lim tashkilotlarining moddiy-texnik ta‘minoti, o‘quv qo‘lanmalari, eng yangi pedagogik texnologiyalar, zamonaviy baholash mezonlari ishlab chiqilmoqda. Biroq, amaliyot shuni ko‘rsatadiki, bitiruvchi mutaxassis diplomiga ega bo‘lib, dastlabki bosqichda ish beruvchi tomonidan taklif qilingan maoshga yashashga tayyor emas. Ko‘pincha buning sababi - o‘z daromadlarini taqsimlay olmaslik, uni tejashga qodir emaslik va asosiy moliyaviy vositalarni bilmaslik. Har bir fuqaroning moliyaviy muvaffaqiyati oxir-oqibatda butun mamlakatning moliyaviy muvaffaqiyatiga yordam beradi. Yoshlarning moliyaviy savodxonligini oshirish masalalari iqtisodchilarning ishlarida ko‘rib chiqilgan. Masalan:

R.O. Voskanyan “moliyaviy savodxonlik” tushunchasini insonning daromad olish yoki moliyaviy barqarorlikni ta‘minlash uchun moliyaviy vositalarni ongli ravishda tanlash va ulardan foydalanish qobiliyati deb hisoblaydi.

N.N. Klokovala “moliyaviy savodxonlik” tushunchasini moliyaviy bilim, ko‘nikma va malakalar kabi komponentlar yig‘indisi sifatida belgilaydi, ular orqali shaxs moliya sohasida xulq-atvor munosabatlarini rivojlantiradi (moliyaviy vositalardan foydalanishdagi faollik, ularga ishonch darajasi).

I.B. Konstantinovning ta‘kidlashicha, “moliyaviy savodxonlik” tushunchasi moliyaviy sektorda qarorlar qabul qilish va shaxsiy farovonlikka erishish imkonini beradigan bilimlar, amaliy ko‘nikmalar va munosabatlarning kombinatsiyasi sifatida ta‘riflanadi (3-C.A. Цыплакова).

Ko‘pgina tadqiqotchilarning fikriga ko‘ra, maktabda o‘qish davrida maktablarda moliyaviy savodxonlik bo‘yicha alohida darslarni joriy etish kerak, shunda bolalar erta yoshdan boshlab o‘z kapitalini qanday oshirishni, oila byudjetini qanday rejalashtirishni, pulni tejash va to‘g‘ri sarflashni o‘rgangan bo‘lar edi deb xisoblashadi. Ushbu amaliyot Yangi Zelandiya va Avstraliya davlatlarida qo‘llaniladi. Bu davlatlarda moliyaviy savodxonlik maktablarda majburiy fan hisoblanadi. Bundan tashqari, Braziliya maktablari hatto o‘quvchilarning ota-onalarini darslarga jalb qiladi va bolaning fikrini hisobga olgan holda oila byudjetini muhokama qilish va rejalashtirishni talab qiladi. Ushbu uslub moliyaviy savodxonlikni rivojlantirishga yordam beradi (2-И.Б. КОНСТАНТИНОВ).

Yoshlarning moliyaviy savodxonligi moliya bozorining faoliyat ko‘rsatish mexanizmlari haqidagi bilimlarning mavjudligini taqozo etadi. Bu iste‘molchilarga ma‘lum bir moliyaviy mahsulotning jozibadorligini ongli ravishda baholash imkonini beradi. Iste‘molchi zarur ko‘nikmalarga ega bo‘lib, moliyaviy sohada ongli ravishda qaror qabul qila oladi va ular uchun javobgarlik hissi uyg‘onadi.

Ko‘pgina tadqiqotchilar moliyaviy savodxonlik - bu mavjud iqtisodiy vaziyatni, moliyaviy imkoniyatlar va resurslarni to‘g‘ri baholashga imkon beradigan, shuningdek, moliyaviy xizmatlardan va shaxsiy makonda professional foydalanishni o‘z ichiga olgan bilim va ko‘nikmalar degan xulosaga kelishdi. Iqtisodiyot hayot uchun zarur, chunki... iqtisodiy bilimga ega bo‘lish daromad va xarajatlarni qulay va oqilona taqsimlashga yordam beradi. Iqtisodiyot insonga o‘z daromadlarini ko‘paytirishga va uni ehtiyojlariga to‘g‘ri taqsimlashga yordam beradi. Shuni esda tutish kerakki, iqtisodiyot jamiyatning eng muhim qismidir.

Bugungi kunda iqtisodchilar juda ko‘p. Shu bilan birga, o‘z hayotlarini moliya sektori bilan bog‘lashni xohlaydigan minglab yoshlar doimiy ravishda kollejlarda va Oliy ta‘lim muassasalariga o‘qishga kirishmoqda. Har qanday davlat organi, korxonada, xususiy firma va jamoat tashkilotlari bunday mutaxassislariga muhtoj. Shuning uchun iqtisodiy kasblar katta talabga ega. Har qanday tashkilotga analitik, moliyaviy va buxgalteriya faoliyatini olib boradigan mutaxassis kerak, shunda korxonada har doim foyda bilan ishlaydi va o‘z mahsuloti yoki xizmatlarini sotishdan katta daromad oladi.

Ammo iqtisodiy bilimlar va iqtisodiy ta‘lim iqtisodiy bo‘lmagan mutaxassisliklarda mavjud bo‘lish huquqiga ega. Bizningcha, oliy o‘quv yurtlari va kollej o‘qituvchilari har qanday ta‘lim yo‘nalishidagi har bir talabaning iqtisodiy savodxonligi ustida ish olib borishlari kerak. Kasb-hunar ta‘limi muassasasida o‘quvchilarga tizimli ravishda iqtisodiy bilim berish orqali iqtisodiy savodxonlik darajasini oshirish mumkin.

Ta‘lim tashkilotining samarali faoliyatining ko‘rsatkichlaridan biri bu bitiruvchilarning o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ish bilan ta‘minlanganligining yuqori foizidir. Har kim ham o‘z mutaxassisligi bo‘yicha ishga joylasha olmaydi, agar ish topsa, tez orada boshqa, odatda yuqori maoshli faoliyat turini topishga harakat

qiladi. Zamonaviy jamiyatda moddiy farovonlik ustuvor o‘rinni egallaydi, chunki u insonning muvaffaqiyati va uning ehtiyojlarini qondirishni aks ettiradi.

Moliyaviy savodxon talaba quyidagilarni bilishi kerak: daromad va xarajatlar rejasini tuzish; zamonaviy iqtisodiyotning tabiati haqida tasavvurga ega bo‘lish; asossiz xaridlarni amalga oshirmaslik; oylik mablag‘larni oqilona taqsimlash, shu jumladan bank depozitlari va operatsiyalarini amalga oshirish; pulni foydali investitsiya qilish; oltin-valyuta va xalqaro valyuta operatsiyalarini amalga oshirish ko‘nikmalarini erkin egallashi.

Yoshlarni va talabalarni moliyaviy saodxonligini oshirishda quyidagi usullardan foydalanishni maqsadli deb xisoblaymiz:

Moliyaviy savodxonlikni o‘rgatishda eng samarali usullar interfaol usullar va “hamkorlikda o‘rganish” usulidir. Ushbu usullardan foydalanishda asosiysi talabalarga moliya bilan bog‘liq aniq hayotiy vaziyatlarni muhokama qilishda yordam beradi. Talabalar muayyan vaziyatni hal qilishda tahlil qiladilar va eng oqilona echimlarni topadilar (1-Н.В. Быстрова).

Bundan tashqari biznes o‘yini. Ular o‘quvchilarni real hayotiy vaziyatlarga tayyorlaydilar va muayyan vaziyatda qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Быстрова Н.В. Организация профессионального воспитания студентов колледжа / Н.В. Быстрова, И.Р. Воронина //Эпистемологические основания современного образования: актуальные вопросы продвижения фундаментального знания в учебный процесс: материалы Международной научно-практической конференции 2020 Борисоглебского филиала ФГБОУВО «ВГУ». – Москва, 2020. – С. 477-483.

2. Константинов И.Б. Финансовая грамотность населения России: проблемное поле и концептуальная модель /И.Б. Константинов // Изв. Сарат. ун-та Нов. сер. Сер. Экономика. Управление. Право. – 2017. – №1. – С. 11-17.

3. Цыплакова С.А. Исследование проблем управления процессом профессиональной подготовки студентов в вузе /С.А. Цыплакова, Н.В. Быстрова, Е.Е. Пулькина // Инновационная экономика: перспективы развития и совершенствования. –2019. – № 1 (35). – С. 56-60.

IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH SHAROITIDA SOLIQ MA‘MURIYATCHILIGINI TAKOMILLASHTIRISHGA ZAMONAVIY AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARINI YANADA KENG JORIY ETISH YO‘LLARI

Boltaev O‘ktam Nuriddinovich

Buxoro soliq texnikumi direktorning o‘quv va tarbiyaviy ishlar bo‘yicha o‘rinbosari

Respublikamizda davlat organlari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlarning barchasining elektron ko‘rinishga o‘tkazish borasida salmoqli ishlar olib borilmoqda. Bu yo‘nalishda hukumatimiz tomonidan bir qancha qaror va farmonlar qabul qilindi hamda ishlar takillashtirilmoqda.